

ALISHER NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI.**Komilova Oygul Vohidjon qizi***Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti talabasi**[E-mail:oygulkomilova75@gmail.com](mailto:oygulkomilova75@gmail.com)*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining turkiy va jahon adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri, badiiy mahorat masalalari va an'ana davomiyligi tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, adabiy ta'sir, turkiy adabiyot, jahon adabiyoti, "Navoiy asri".*

Аннотация. *В данной статье исследуются влияние творчества Алишера Навои на тюркскую и мировую литературу, вопросы художественного мастерства и преемственность традиций.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, литературное влияние, тюркская литература, мировая литература, «век Навои».*

Abstract. *This article examines the influence of Alisher Navoi's creative work on Turkic and world literature, issues of artistic mastery, and the continuity of traditions.*

Keywords: *Alisher Navoi, literary influence, Turkic literature, world literature, "Navoi's age".*

Har bir asr avlodi uchun zamondosh bo'lgan hazrat Alisher Navoiy butun turkiy xalqlarning, barcha millatlarning betakror adibi va she'riyat osmonining quyoshidir. Buyuk adib ijodiy merosi, u yaratgan boqiy asarlar, o'zbek va jahon adabiyotshunosligida shoh asarlar bo'libgina qolmay, badiiy-estetik qimmatga ham egadir. Navoiy ijodida o'ziga xos murakkablik, leksikasining rang-barangligi, shuningdek, zullisonaynlikdan mohirlik bilan qo'llanganini hisobga olgan holda, hozirgi kunda uning asarlarini o'qirmanlarga anglatish yo'lida turli qo'llanma, sharh va lug'atlar tuzilmoqda.

Navoiyshunoslik tarixi uzoq davrlarga borib taqalsa-da, mustaqillik yillarida adabiyotshunoslikning bu sohasi yangi o'zanlarda rivojlandi. Bu davrda o'zbek navoiyshunosligida shoir asarlari manbalari tasnifi, nashrlari, tekstologik tahlili, tarixiy-biografik, qiyosiy-tarixiy, ilmiy-tasavvufiy tadqiqi borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Ayni paytda, shoir ijodini umumjahoniy ko'lamda, muallif diniy-ma'rifiy dunyoqarashi, badiiykonseptual prinsiplari asosida xolisona o'rganish bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan muhim masalalardandir. Zero, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekani, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot va madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'qligi bugungi

adabiyotshunosligimiz oldiga qanchalik katta vazifalar qo'yilganligini ko'rsatadi.¹⁸ Darhaqiqat, har bir xalqning madaniy-ma'rifiy qiyofasini belgilaydigan, jahon tamaddunini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimizni sevmadan, o'qimasdan, o'rganmasdan turib, ma'naviyatni, adabiyotni da'vo qilish mumkin emas.

Alisher Navoiyning merosi xalqimiz ma'naviyati, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun zarur va muhim omildir. Uning buyukligi va xalqimiz tarixidagi xizmatlari mutafakkir shoirligi bilangina belgilanmaydi, albatta. Navoiy badiiy ijod jabhasida qanchalik tengsiz bo'lsa, ilmda, ya'ni olimlikda ham shunchalik benazir. Navoiyning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix va tasavvufshunoslikka bag'ishlangan asarlari hanuzgacha o'zining ilmiy qimmatini boy bergani yo'q.

Tilimiz, adabiyotimiz muammolarini hal qilishda bu nodir tadqiqotlarga qayta-qayta murojaat qilishimiz, ayniqsa, yosh avlod ulardan puxta xabardor bo'lishi zarur.¹⁹ Zotan, xalqimizning, umuman, turkiy xalqlar adabiyotining mutafakkiri Alisher Navoiyning hayoti va adabiy merosini milliy istiqbol g'oyasi, mustaqillik mafkurasi va dunyo ilmiy tafakkuri mezonlari asosida izchil, keng qamrovda yangidan tadqiq etish va jamlash o'ta dolzarb masalalardandir. Zero, har bir xalqning o'zligi, dunyo tamaddunida tutgan o'rni, intellektual salohiyati, badiiy tafakkur quvvati, eng avvalo, uning adabiy merosi, xususan, daho ijodkorlarning asarlarida aks etadi. Jumladan, Navoiy o'z asarlarida nafaqat shaxsiy his-tuyg'ularini, balki jamiyatdagi muhim masalalarni ham yoritgan. U adolat, sevgi, do'stlik va insoniylik kabi qadriyatlarni o'z asarlarida aks ettirib, o'z zamonidagi ijtimoiy muammolarni tanqid qilgan. Navoiy o'z ijodida qahramonlar orqali xalqning ruhiyatini, urf-odatlarini va an'alarini aks ettirgan. U o'z zamonida xalqning muammolari, umidlari va orzularini o'z asarlarida ifodalagan.

Alisher Navoiy o'zining "Xamsa" asarida turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytirgan. Bu asar beshta dostonni o'z ichiga oladi va turkiy adabiyotda yangi sahna ochadi. Navoiy o'z asarlarida chuqur ma'nolarni ifodalashga intilib, turkiy tilni badiiy ifoda vositasi sifatida ishlatgan. U o'z zamonida turkiy tilning imkoniyatlarini kengaytirib, uni adabiyot va ilm-fan sohalarida muhim rol o'ynashiga sabab bo'lgan.²⁰ Navoiy o'z asarlarida insonning ichki dunyosi, uning his-tuyg'ulari va hayotiy tajribalari haqida chuqur fikrlar bildirgan. U insoniyatning ma'naviy qadriyatlari, axloqiy tamoyillari va hayotiy saboqlarini o'z asarlarida aks ettirib, o'z zamonidagi ijtimoiy muammolarni yoritishga harakat qilgan. Bu esa uning asarlarini

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi. 2017-yil, 4-avgust.

¹⁹ Mirziyoyev Sh.M. erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2016. – 16 b.

²⁰ Qodirov, A. (2018). Navoiy merosi: Adabiy tahlil. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashri

nafaqat adabiyot, balki falsafa sohasida ham muhim manba sifatida qabul qilishga sabab bo'ldi.

U o'z asarlarida turkiy tilning go'zalligini va kuchini namoyish etgan. U o'z zamonida turkiy tilni badiiy ifoda vositasi sifatida ishlatib, o'z asarlarida chuqur ma'nolarni ifodalagan. Navoiy turkiy tilni nafaqat o'z zamonasida, balki kelajak avlodlar uchun ham boyitishga intilgan. Uning asarlari turkiy tilning rivojlanishida muhim manba bo'lib qolmoqda. Navoiy, o'z asarlarida xalqning ruhiyatini, urf-odatlarini va an'analarini aks ettirgan.²¹ Shuning uchun ham bugungi kunda jamiyatimiz ma'naviy jihatdan yangilanayotgan, milliy qadriyatlar tiklanayotgan bir zamonda ulug' shoirning boy ijodiy merosining yanada kengroq targ'ib etilishi, xalqimizning barcha qatlamlariga yetib borishi o'ta muhim va ayniqsa, yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

Buyuk shoirning barcha asarlari umumbashariy insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, shuning uchun ham barcha turkiy xalqlar uni o'z shoiri deb biladi va alohida mehr bilan o'qib-o'rganadi. Taniqli turk olimi Jahon Oqquyuji ma'lumotiga ko'ra, Turkiyada Alisher Navoiy asarlarining 100 dan ziyod qo'lyozmalari saqlanadi. Yana bir turk olimi Yusuf Chetindog' esa: "Ayniqsa, XVI asr umumturk olamida "Navoiy asri" deb atalsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi", deya e'tirof etgan. Tarixiy kitoblar shundan dalolat beradiki, Alisher Navoiy asarlari Turkiyaga uning hayotligi davridayoq kirib borgan. Chunonchi, turk sultoni Boyazid Ikkinchi bilan shaxsan tanish bo'lgan Alisher Navoiy 1481-yilda unga 33 ta g'azalini yuboradi. Turk sultoni ularni Bursaga – o'sha davrning mashhur shoiri Ahmad Poshoga yuborib, ushbu g'azallarga nazira yozishni so'raydi. G'azallar shoirda kuchli taassurot qoldiradi va ularning barchasiga nazira bog'laydi.²² Zabardast olim, filologiya fanlar doktori, professor Almaz Ulviy (Binnatova)ning "Alisher Navoiyning asri va nasri (ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarlari)"nomli monografiyasi-Navoiy yashagan ijtimoiy-madaniy muhit, ulug' shoirning ma'naviy-axloqiy qiyofasi va nasriy asarlarining o'ziga xos jihatlari bir butun tarzda o'rganilgani bilan alohida mavqeyga ega. Ulviyning mazkur tadqiqoti Alisher Navoiy yashagan davr, zamon, ijtimoiy, siyosiy, adabiy muhit, zamondoshlarining axloqiy qiyofasi va ulug' mutafakkir asarlari haqida ma'lumot beribgina qolmay, mazkur asarlarning g'oyaviy olami, badiiyati xususida ham keng mushohada yuritishga undaydigan yana bir tadqiqotdir.²³ Asrlar, yillar o'tadi, ammo bu kabi tadqiqotlar natijasida ulug' zotning xotirasi avlodlar qalbida mangu yashab qoladi, kelajak nasllar ularning ma'naviy merosidan yanada ko'proq bahramand bo'ladi. Bunday ilmiy-adabiy jur'atlar bizni hazrat Navoiyga, hazratni bizga yaqinlashtiradi.

²¹ Xolmatov, S. (2016). Alisher Navoiy va uning davri. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashri.

²² https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00115/115_i_20251109_105037_1.33.pdf

²³ <https://erus.uz/index.php/er/article/view/5115/6042>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning har bir o‘zbek sidqidildan Navoiyni o‘qib-o‘rganishi, dunyoning eng murakkab, millatning eng dolzarb muammolarini Navoiy ilmiy-adabiy merosiga suyanib hal qilishi; ilm-fan, madaniyat, maorif, xususan, ma’naviyat va adabiyot rivojini buyuk bobomiz asarlarisiz tasavvurga keltirmasligiga chorlashi oddiy gap emas, albatta. Prezidentimiz qarori bilan buyuk mutafakkir shoir nomida Xalqaro jamoat fondi, ijod maktabi tashkil etilishi mazkur fikrning hujjatli tasdig‘iga o‘xshaydi. Zero, Navoiyni bilish – tariximizni bilish, jonajon tilimizni e‘zozlash, dinning kuch-qudratini keng mushohada qilish, millat birligi, Vatan istiqboli va hurligiga o‘zni safarbar his qilmoq deganidir.²⁴

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy zamon va makon bilmas adabiy zakodir. Asarlari hayot qomusi kabi hamisha to‘g‘ri yo‘lning yorug‘ manzilini ko‘rsatadi, egri yo‘lning ayanchli oqibatlaridan saboq beradi. Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an‘analari zaminida maydonga keldi va o‘z navbatida keying davr adabiyoti rivojiga samarali ta’sir ko‘rsata oldi. Uni tushunishni istashning o‘zi kishiga qanchalik halovat bag‘ishlaydi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori” mavzusida O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvidagi ma’ruzasi//Xalq so‘zi. 2017-yil, 4-avgust.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2016. – 16 b.
3. Qodirov, A. (2018). Navoiy merosi: Adabiy tahlil. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashri
4. Xolmatov, S. (2016). Alisher Navoiy va uning davri. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashri.
5. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00115/115_i_20251109_105037_1.33.pdf
6. <https://erus.uz/index.php/er/article/view/5115/6042>
7. <https://uztrj.uz/wp-content/uploads/2025/02/ALISHER-NAVOIY-ENSIKLOPEDIYASI-4-jildlik.pdf>
8. Alisher Navoiy –Toshkent, O‘zbekiston, 2022.-272 b

²⁴ <https://uztrj.uz/wp-content/uploads/2025/02/ALISHER-NAVOIY-ENSIKLOPEDIYASI-4-jildlik.pdf>